



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “O‘ZARXIV” AGENTLIGINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-809-son Qonuni ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-809-son Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrdagi O‘RQ-809-son Qonuni hamda unga muvofiq “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga **“genderga oid audit”**, **“genderga doir kompleks yondashuv”** tushunchalari va tegishli normalar kiritilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrdagi O‘RQ-809-son Qonuni ijrosini samarali amalga oshirish bo‘yicha Nazorat rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “O‘zarxiv” agentligi direktorining Ma’naviyat va davlat tili masalalari maslahatchisi (Sh.Tursunbayev), Xotin-qizlar qo‘mitasi (S.Yunusxodjayeva):

bir hafta muddatda Qonunning mazmun-mohiyati haqida Markaziy apparat xodimlarini xabardor qilsinlar;

ushbu Qonunga zid bo‘lgan ichki normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqib, zaruratga ko‘ra taklif ishlab chiqsinlar.

4. Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni o‘rganib chiqilishini hamda muhokama qilinishini;

davlat arxivlari faoliyatida, shu jumladan, kadrlar siyosatini olib borishni xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. Ushbu buyruq bajarilishi yuzasidan umumiy nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor o‘rinbosari



Sh. Sadikov

Toshkent shahri,
2022-yil 21-dekabr
219-son

**O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrda O‘RQ-809-son Qonuni
ijrosini samarali amalga oshirish bo‘yicha
NAZORAT REJASI**

T/r	Topshiriqning mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi (shakli)	Amalga oshirish muddatlari	Mas‘ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-dekabrda O‘RQ-809-son Qonuni mazmun-mohiyati haqida Markazi apparat xodimlarini xabardor qilish	1. Agentlikning markaziy apparat xodimlariga apparat yig‘ilishida Qonunda belgilangan vazifalar to‘g‘risida ma‘lumot berish. 2. Xodimlarga mazkur ma‘lumotlar yetkazilganligi bo‘yicha yig‘ilish bayonnomasida qayd etish.	Bir hafta muddatda	Sh. Tursunbayev, S.Yunusxodjaeva
2.	“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni muhokama qilish	Mazkur Qonun bilan batafsil tanishib chiqish va tegishli vazifalar belgilash.	Uch kun muddatda	Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish markazi rahbarlari
3.	Davlat arxivlari faoliyatida, shu jumladan, kadrlar siyosatini olib borishni xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tashkil etilishini ta‘minlash	1.Qonundagi o‘zgartirishlardan kelib chiqib gender auditi haqida tushunchalar berib borish; 2. Faoliyatni qonunchilikka muvofiq tashkil etilishini ta‘minlash.	Faoliyat davomida	
4.	Ichki normativ-huquqiy hujjatlarni mazkur Qonunga muvofiq lashtirish	1. Qabul qilingan tegishli ichki normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish; 2. Qonunga zid bo‘lgan hujjatlarni bekor qilish, qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha hujjat loyahasini tayyorlash.	Bir oy muddatda	Sh. Tursunbayev, S.Yunusxodjaeva